

CHET TILLARINI O‘QITISHDA METODLAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING MUAMMOLARI

Jo‘raxoldorova Shukrona Tursunali qizi

*Farg‘ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti,
ingliz tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitishda metodlar va zamonaviy texnologiyalar, ularni to‘g‘ri tadbiq etilishi, yoshlar va bolalar onggiga qay darajada ta‘sir qilishi haqida batafsil ma‘lumot berib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Metodika, o‘qitish sistemasi, tarjima metodi, audiolingval va audiovisual, zamonaviy metodlar, chet tili, innovatsion texnologiya*

Kirish.

Hozirda umumta‘lim maktablari o‘spirin yoshlarni har tomonlama tarbiyalashi, ularga barcha fanlardan mukammal bilim berishi, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishi va kengaytirishi hamda ularni estetik ruhda kamol toptirishi kerak. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda chet tilini o‘qitish samarali uslubdir. Tarixdan xorijiy tillarni o‘rgatishda turli xil metodlardan foydalanishgan. Bu esa o‘z navbatida, “Xorijiy tillar metodikasi” atamasi sifatida fanga kirgan. Aslida, metodika yunoncha so‘z bo‘lib, “methodike” – “biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui” ma‘nosini anglatadi. Ammo chet tilini o‘qitish metodikasida bu ibora uch xil ma‘noni anglatadi.

Birinchi, metodika tarixidagi butun bir yo‘nalish (tarjima metodi, to‘g‘ri metod, qiyosiy metod, qo‘llash metodlari).

Ikkinchi, yuqoridagi yo‘nalish tarkibiga kiruvchi o‘qitish sistemasi.

Uchinchi, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro bog‘langan faoliyati usuli (tanishish, mashq qilish, qo‘llash metodlari).

Muhokama va natijalar:

Chet tillarini o‘qitish metodikasi, professor Mixail Vasilevich Lyaxovitskiy ta‘riflashicha, ta‘lim maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta‘lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi sohadir. Mana shu sohani bir necha metodlar yordamida kengroq o‘rganish mumkin. Masalan, tarjima metodi. Ushbu metod xorijiy til materialini ona tiliga to‘g‘ri tarjima qilishdan iboratdir. XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asr davomida hozirgi xorijiy aktiv tillar hisoblangan: ingliz, fransuz va nemis tillari yevropaliklar tomonidan shu metod yordamida o‘rganildi. Vaqtlar o‘tgandan keyin, bu metodning samaradorligi pastligi bir necha usullarda (matnni tarjima qilish va uni yod olish, so‘zlarni oddiy lug‘at yordamida tarjima qilish) namoyon bo‘ldi. Shu

sababli to'g'ri metoddan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu metod, asosan, xorijiy tillarni amaliy o'rganishni ilgari surgan. To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishlaridan shu ikkisi – audiolingval va audioviuzual metodlari ko'p tarqalgan. Bu metodlarning asoschilari (mashhur Amerika metodistlari Charliz Karpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan xorijiy tillar amaliy va ta'limiy maqsadda o'rganiladi. Til materiallariga xorijiy jumlar va nutq namunalarini tanlash va o'rgatishda muhim o'rin beriladi. Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tushunish – gapirish – o'qish – yozish.

Bilamizki, yurtimizda bunday zamonaviy metodlarning chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitishda o'rni va roli kattadir. Shu o'rinda hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan metodlardan namunalar keltirmoqchiman.

Masalan:

1. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun avval hikoyaning boshi o'qib beriladi va buning oxirini topish o'quvchilarga vazifa sifatida beriladi. Bu usul yoshlarning til o'rganish bilan birga fikrlash qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

2. "Pantomima" – turli xil so'zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish. Bu usul o'quvchilarni diqqatni jamlash va biroz tassavvurni rivojlantirishga undaydi.

3. " Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay va ommabop bo'lib, ingliz tili yoki rus tilini o'rganishga, bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

4. " Onlayn o'yin" " KhooD". Bu huddi quiz testga o'xshagan o'yindir. Faqat bunda barcha o'quvchilar internetdan foydalangan holda sayt orqali o'yinda ishtirok eta oladilar. Bu usul bolalarda chet tiliga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Demak, yuqorida sanab o'tilgan har bir usul chet tillarini o'qitishda samaralidir. O'qitish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalar va turli xil pedagogik metodlardan unumli foydalanishga, o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, o'z ustida ishlashga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda chet tillarini o'rgatishda xorijiy tillar metodikasining zamonaviy metodlaridan va innavatsion texnologiyalardan foydalanish chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning tezlashishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Ko‘chiboyev, E. Iskandarov. Xorijiy tillarda muloqotga o‘rgatishda Yangi pedagogik texnologiyalar. Samarqand – 2011.
2. A.A. Haydarov. Tillarni o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari o‘quv qo‘llanmasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro – 2022.
3. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Buxoro – 2001.
4. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. Toshkent – 2000.
5. J. Shabanov. Chet tilini o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. Toshkent – 2009.
6. qizi Po‘latova, S. I. (2023). VOLEYBOLCHILAR TAYYORLASH JARAYONINI BOSHQARISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 46-50.
7. qizi Po‘latova, S. I. (2023). VOLEYBOL O‘YININI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 174-178.
8. Yo‘ldashev, I. (2023). O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA SAMARALI YO‘NALTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(19), 7-15.
9. wikipedia.org
10. arxiv.uz